

## Safarlarda quchilgan zaflarlar

Gidromelioratsiya fakulteti "Suv xo'jaligida innovatsion texnologiyalar va ulardan foydalanish" ta'lif yo'nalishi 307-guruh talabalari Azizbek Hasanov, Jahongir Muxtorov hamda ularning guruh murabbiyi Sanobar Do'stnazarovalar Jizzax viloyati Baxmal tumanida o'zлari ko'zlagan maqsadga erishgach yo'nalishni Jizzax viloyatining Forish tumani tomon burdilar. Forish tumanida joylashgan 2, 3, 7-maktablarning bitiruvchisi 10-11 sinf o'quvchilari va ularning ustozlari bilan bo'lgan uchrashuv ham avvalgilari singari ko'tarinki ruhda, yangi ma'lumotlar va qizg'in savol javoblarga boy tarzda o'tdi.



Maktab bitiruvchilari uchun kutilmagan va o'z o'rнida g'oyat muhim bo'lgan bu tashriflardan maktablardagi pedagog-ustozlarning ham minnatdorchiligi cheksiz. O'quvchilar esa o'z oldilariga aniq maqsadlarni qo'yib, harakatni allaqachon boshlashdi. Tashriflar yakunida maktab direktori hamda ota-onalar Kengashining institut Rektori va professor-o'qituvchilar jamoasiga atalgan maxsus "TASHAKKURNOMA"si tashkilotchilarga topshirildi. "Innovatsiya" guruhi tomonidan an'anaga aylantirilgan maktablarga tashriflar va qiziqarli ochiq darslar, uchrashuvlar davom etadi.

**Gidromelioratsiya fakul'teti 307-guruh talabasi Azizbek Hasanov axboroti**

**TIQXMMA matbuot xizmati**